O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2022- yil*
*yanvar-dekabr*



PRESS-RELIZ

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DEMOGRAFIK HOLATI

*2022- yil yanvar-dekabr, dastlabki ma’lumotlar*

***Demografiya statistikasi*** *– ijtimoiy-iqtisodiy statistikaning sohalaridan biri bo‘lib, aholi soni, tarkibi, aholi yoki uning guruhlarining joylashuvi va takror hosil bo‘lishi bilan bog‘liq ma’lumotlarni statistik usullardan foydalangan holda yig‘ish, qayta ishlash, ifodalash va tahlil qilish faoliyati bilan shug‘ullanadi.*

## Doimiy aholi soni 36 024,9 ming kishi

*(2023- yil 1- yanvar holatiga)*

**Tug‘ilganlar soni**

932 192 nafar

*2021- yilga nisbatan*
*3,0 % ga ko‘paygan*

**Tug‘ilish koeffitsiyenti**

26,2 ‰

*2021- yilga nisbatan*
*0,3 ‰ ga ko‘paygan*

**Vafot etganlar soni**

172 075 nafar

*2021- yilga nisbatan*
*1,4 % ga kamaygan*

**Vafot etish koeffitsiyenti**

4,8 ‰

*2021- yilga nisbatan*
*0,2 ‰ ga kamaygan*

**Aholining tabiiy o‘sish**

760 117 nafar

*2021- yilga nisbatan*
*4,0 % ga ko‘paygan*

**Tabiiy o‘sish koeffitsiyenti**

21,4 ‰

*2021- yilga nisbatan*
*0,5 ‰ ga ko‘paygan*

**Qayd etilgan nikohlar soni**

296 689 nafar

*2021- yilga nisbatan*
*2,8 % ga kamaygan*

**Nikoh tuzish koeffitsiyenti**

8,3 ‰

*2021- yilga nisbatan*
*0,4 ‰ ga kamaygan*

**Nikohdan ajralishlar soni**

48 734 nafar

*2021- yilga nisbatan*
*23,9% ga ko‘paygan*

**Nikohdan ajralish koeffitsiyenti**

1,4 ‰

*2021- yilga nisbatan*
*0,3 ‰ ga ko‘paygan*

**Mingta nikohga to‘g‘ri keladigan ajralishlar**

164,3 ‰

*Bunda har 1000 ta tuzilgan nikohga to‘g‘ri keladigan nikohdan ajralishlar soni nikoh mustahkamligi koeffitsiyentini ifodalaydi.*

*2021- yilga nisbatan*
*35,4 ‰ ga ko‘paygan*

**Xorijdan ko‘chib kelganlar soni**

2 322 kishi

*2021- yilga nisbatan*
*23,8 % ga ko‘paygan*

**Xorijga ko‘chib ketganlar soni**

8 790 kishi

*2021- yilga nisbatan*
*56,4 % ga kamaygan*

**Migratsiya saldosi**

-6 468 kishi

*2021- yilga nisbatan*
*64,6% ga qisqargan*

**Doimiy aholi soning umumiy o‘sishi**

+753,6 ming kishi

*2021- yilga nisbatan*
*2,1 % ga ko‘paygan*

**Dunyo doimiy aholisi soning so‘nggi besh yil davomida yillik o‘zgarishi**
*million kishi*




Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2017- yilda dunyo doimiy aholisi soni **86,0** mln kishiga ko‘paygan bo‘lsa, 2021 -yilda esa aholi ko‘payishi **20,9** foizga kamayib **68,0** mln kishini tashkil etgan. Dunyo bo‘yicha doimiy aholi soninining dastlabki 1 mlrd kishidan 2 mlrd kishiga o‘zgarishi uchun ketgan vaqt **123** yilni tashkil etgan bo‘lsa, so‘nggi **11** yil davomida **7** mlrd kishidan **8** mlrd kishiga yetgan.

**Dunyo aholisi soninining har mlrd kishiga ko‘payishi**
*mlrd. kishi*



***Doimiy aholi soni*** *– ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.*

**O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholi sonining so‘nggi yuz yildagi o‘zgarishi**

*1- yanvar holatiga, million kishi, yillar*




O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholisi soni 1920- yilda **4,4** mln kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2023- yilning 1- yanvariga kelib, doimiy aholi soni **31,6** million kishiga yoki 7 barobarga ko‘paygan hamda **36 024,9** ming kishini tashkil etgan. O‘z navbatida tabiiy o‘sish koeffitsiyenti 1920- yilga (**11,0** promille) nisbatan **9,9** promillega ko‘paygan hamda **20,9** promilleni tashkil etgan.

**O‘zbekiston Respublikasi doimiy aholi sonining so‘nggi yuz yildagi tabiiy o‘sish koeffitsiyenti,**

*1000 aholiga nisbatan, promille, yillar*



# O‘zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni

*1-yanvar holatiga*

**Yillik ma’lumotlar,**
*ming kishi*




**Jinslar kesimida taqsimlanishi**

| Erkaklar | Ayollar |
|---|---|
| 18 128,6 | 17 896,3 |
| *ming kishi* | *ming kishi* |

**Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi**

| Shahar | Qishloq |
|---|---|
| 18 335,7 | 17 689,2 |
| *ming kishi* | *ming kishi* |

2023- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **36 024,9** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **18 128,6** ming kishini, ayollar soni **17 896,3** ming kishi, shahar aholisi soni **18 335,7** ming kishini, qishloq aholisi soni **17 689,2** ming kishini tashkil etdi.

**Choraklar yakunlari,**
*ming kishi/ulushi*

## 1- aprel holatiga

| Erkaklar | Ayollar |
|---|---|
| 17 825,9 | 17 607,9 |
| *50,3%* | *49,7%* |

| Shahar | Qishloq |
|---|---|
| 18 021,7 | 17 412,1 |
| *50,9%* | *49,1%* |

## 1- iyul holatiga

| Erkaklar | Ayollar |
|---|---|
| 17 913,0 | 17 690,5 |
| *50,3%* | *49,7%* |

| Shahar | Qishloq |
|---|---|
| 18 117,7 | 17 485,8 |
| *50,9%* | *49,1%* |

## 1- oktyabr holatiga

| Erkaklar | Ayollar |
|---|---|
| 18 024,3 | 17 796,9 |
| *50,3%* | *49,7%* |

| Shahar | Qishloq |
|---|---|
| 18 231,9 | 17 589,3 |
| *50,9%* | *49,1%* |

***Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soni*** *– Mehnat Kodeksiga muvofiq 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan ayollardan tashkil topadi (16 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 60 yosh va undan katta erkaklar hamda 55 yosh va undan katta ayollar mehnatga layoqatli yoshdan kattalar toifalariga ajratiladi).*

## Aholi soninig yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

*2023- yil 1- yanvar holatiga*




2023- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi sonining **31,7** % i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,8** % i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **11,5** % i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

## O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi

*2023- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi*




O‘zbekiston Respublikasida 2023- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrga o‘rtacha **80,2** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **1,6** kishiga ortgan (2022- yilda 1 kv.km.ga **78,6** kishi).

Hududlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida **6597,5** kishi, Andijon viloyatida **772,7** kishi, Farg‘ona viloyatida **588,2** kishi tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Navoiy viloyati **9,5** kishi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida **11,9** kishini tashkil etgan.

# O‘zbekiston Respublikasida qayd etilgan tug‘ilishlar

*2022- yil yanvar-dekabr*

## Yillar bo‘yicha taqsimlanishi, *ming kishi*




## Jinslar kesimida taqsimlanishi



**O‘g‘il bolalar** **482,4** *ming kishi*

**Qiz bolalar** **449,8** *ming kishi*

## Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi



**Shahar** **473,4** *ming kishi*



**Qishloq** **458,8** *ming kishi*

2022- yil yanvar-dekabr oylarida tirik tug‘ilganlar soni **932,2** ming kishini tashkil etdi, shundan o‘g‘il bolalar soni **482,4** ming kishini, qiz bolalar soni **449,8** ming kishi, tug‘ilganlar soni shahar joylarida **473,4** ming kishini, qishloq joylarida **458,8** ming kishini tashkil etdi.

## Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, *kishi/ulushi*

| Oy | O‘g‘il bolalar, % | O‘g‘il bolalar | Qiz bolalar, % | Qiz bolalar |
|---|---|---|---|---|
| Yanvar | 51,2% | 36 808 | 48,8% | 35 149 |
| Fevral | 51,6% | 33 241 | 48,4% | 31 178 |
| Mart | 51,6% | 34 695 | 48,4% | 32 527 |
| Aprel | 51,9% | 33 502 | 48,1% | 31 033 |
| May | 52,0% | 36 606 | 48,0% | 33 846 |
| Iyun | 52,1% | 39 090 | 47,9% | 35 885 |
| Iyul | 52,0% | 41 505 | 48,0% | 38 253 |
| Avgust | 51,9% | 49 950 | 48,1% | 46 232 |
| Sentabr | 51,4% | 47 449 | 48,6% | 44 824 |
| Oktabr | 51,9% | 44 245 | 48,1% | 41 067 |
| Noyabr | 51,7% | 43 002 | 48,3% | 40 194 |
| Dekabr | 51,6% | 42 261 | 48,4% | 39 650 |

***Tirik tug‘ilish*** *– nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishlaridan biri mavjud bo‘lsa ham bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim;*

## Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

*2022- yil yanvar-dekabr*




2022- yilning yanvar - dekabr oylarida qayd etilgan egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:

1 nafar tug‘ilganlar **97,8** ni 2 nafar egizak tug‘ilganlar **2,1** ni 3 nafar va undan ortiq egizak tug‘ilganlar **0,1** ni tashkil etdi.

## Ota-onasining yoshi bo‘yicha tug‘ilganlarning taqsimlanishi

*2022- yil yanvar-dekabr*




*Tug‘ilganlar sonini aniqlashda Oila kodeksiga muvofiq, tug‘ilgan chaqaloqning onasi yoki otasining doimiy yashash joyiga qarab tug‘ilgan hududi aniqlanadi hamda o‘sha hududning aholisi soniga qo‘shiladi.*

## Tug‘ilish ko‘rsatkichlari bo‘yicha MDH davlatlari reytingi

*1000 aholiga nisbatan koeffitsiyenti*




MDH davlatlarida tug‘ilish darajasiga ko‘ra mamlakatlar bo‘yicha eng yuqorisi O‘zbekiston Respublikasi **(26,2),** Qozog‘iston Respublikasi **(23,5),** Qirg‘iz Respublikasi **(22,4),** Armaniston Respublikasi **(12,4 ),** Ozarbayjon Respublikasi **(11,2),** Moldova Respublikasi **(11,2),** Rossiya Federatsiyasi **(9,6),** Ukraina Respublikasi **(7,3)** hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## Oylar kesimida tug‘ilganlar soni

*kishi*



# O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha vafot etganlar

*2022- yil yanvar-dekabr*

## Yillar bo‘yicha taqsimlanishi,
*ming kishi*




## Jinslar kesimida taqsimlanishi



**Erkaklar**
**95,0**
*ming kishi*



**Ayollar**
**77,1**
*ming kishi*

## Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi



**Shahar**
**92,0**
*ming kishi*



**Qishloq**
**80,1**
*ming kishi*

2022- yil yanvar-dekabr oylarida vafot etganlar soni **172,1** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **95,0** ming kishini, ayollar soni **77,1** ming kishi, vafot etganlar soni shahar joylarida **92,0** ming kishini, qishloq joylarida **80,1** ming kishini tashkil etdi.

## Oylar bo‘yicha taqsimlanishi,
*kishi/ulushi*

| Oy | Erkaklar (%) | Erkaklar | Ayollar (%) | Ayollar |
|---|---|---|---|---|
| Yanvar | 55,2% | 6 542 | 44,8% | 5 306 |
| Fevral | 57,3% | 8 371 | 42,7% | 6 241 |
| Mart | 55,2% | 7 707 | 44,8% | 6 244 |
| Aprel | 54,5% | 6 957 | 45,5% | 5 805 |
| May | 55,0% | 7 061 | 45,0% | 5 786 |
| Iyun | 54,5% | 8 073 | 45,5% | 6 744 |
| Iyul | 54,5% | 9 419 | 45,5% | 7 850 |
| Avgust | 55,5% | 10 414 | 44,5% | 8 357 |
| Sentabr | 55,4% | 7 402 | 44,6% | 5 949 |
| Oktabr | 55,8% | 7 588 | 44,2% | 6 014 |
| Noyabr | 55,8% | 7 040 | 45,2% | 5 810 |
| Dekabr | 54,8% | 8 438 | 45,2% | 6 957 |

***O‘lim (vafot etish)*** *– tananing hayotiy faoliyatining biologik va fiziologik jarayonlarining to‘liq to‘xtashidir.*

**Vafot etganlar koeffitsiyenti**

*1000 aholiga nisbatan koeffitsiyenti, yillar*




***O‘lim sabablari*** *– o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari tushuniladi.*

**O‘limning asosiy sabablari bo‘yicha taqsimlanishi**

*2022- yil yanvar-dekabr, kishi*



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **55,5** foizi – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **9,6** foizi – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **8,0** foizi – o‘simtalardan, **5,5** foizi – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,1** foizi – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **1,4** foizi – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **15,9** foizi boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

## O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

*2022- yil yanvar-dekabr*




2022- yil yanvar-dekabr oylarida vafot etganlar yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanganda 20 yoshgacha vafot etganlar **20,0** % ni, 20-59 yoshlar orasida **24,6** % ni, 60 va undan katta yoshlilarda esa **55,4** % ni tashkil etgan.

## Oylar kesimida vafot etganlar soni

*kishi*




So‘nggi 5 yil davomida qayd etilgan vafot etganlar soni ko‘rsatkichi oylar kesimida tahlil etilganda, nisbatan kam vafot etganlar soni yanvar va sentabr oylarida, eng ko‘p vafot etganlar soni esa iyul-avgust oylarida qayd etilganligi kuzatildi.

# O‘zbekiston Respublikasida qayd etilgan nikohlar

*2022- yil yanvar-dekabr*

**Yillar bo‘yicha taqsimlanishi,**
*ming birlik*




2022- yil yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **296,7** ming birlikni tashkil etib, so‘nggi 5 yilda sezilarli kamayganligi, ya’ni 2018- yilga nisbatan **14,7** mingtaga yoki **4,7 %** ga kamayganligi kuzatildi.

**Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi**



**Shahar** 149,3 *ming birlik*

**Qishloq** 147,4 *ming birlik*

2022- yil yanvar-dekabr oylarida nikoh qurganlarning soni **296,7** mingtani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **149,3** mingtani, qishloq joylarida **147,4** mingtani tashkil etdi.

**Oylar bo‘yicha taqsimlanishi,**
*birlik/ulushi*

| | Shahar | | Qishloq | |
|---|---|---|---|---|
| Yanvar | 43,0% | 8 776 | 57,0% | 11 655 |
| Fevral | 46,5% | 8 287 | 53,5% | 9 537 |
| Mart | 56,5% | 11 090 | 43,5% | 8 528 |
| Aprel | 49,8% | 6 966 | 50,2% | 7 034 |
| May | 55,5% | 10 252 | 44,5% | 8 217 |
| Iyun | 54,4% | 10 104 | 45,6% | 8 472 |
| Iyul | 52,5% | 12 704 | 47,5% | 11 491 |
| Avgust | 51,9% | 16 787 | 48,1% | 15 576 |
| Sentabr | 52,3% | 16 503 | 47,7% | 15 034 |
| Oktabr | 50,5% | 18 469 | 49,5% | 18 077 |
| Noyabr | 46,6% | 16 191 | 53,4% | 18 544 |
| Dekabr | 46,3% | 13 139 | 53,7% | 15 256 |

***Nikoh yoshi** – O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksiga muvofiq nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o‘n sakkiz yosh etib belgilanadi. Uzrli sabablar bo‘lganida, alohida hollarda, nikohga kirishni xohlovchilarning iltimosiga ko‘ra nikoh davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladigan joydagi tuman, shahar hokimi nikoh yoshini ko‘pi bilan bir yilga kamaytirishi mumkin.*

## Nikohlanganlarning o‘rtacha yoshi

*2022-yil yanvar-dekabr*




2022- yil yanvar-dekabr oylari davomida qayd etilgan nikohlarda ayollarning o‘rtacha yoshi **22,3** yoshni, erkaklarning o‘rtacha yoshi esa **26,5** yoshni tashkil etgan. Qayd etilgan nikohlarning eng katta ulushi **25** yoshgacha bo‘lganlarga to‘g‘ri kelgan, ya’ni jami nikohlarning **55,5** foizini tashkil etgan.

## Oylar bo‘yicha qayd etilgan nikohlar soni

*birlik*




So‘nggi 5 yil davomida qayd etilgan nikohlar soni ko‘rsatkichi oylar kesimida tahlil etilganda, nisbatan kam nikoh tuzganlar soni aprel va may oylarida, eng ko‘p nikoh tuzganlar soni esa sentabr-oktyabr oylarida qayd etilganligi kuzatildi.

# O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha nikohdan ajralishlar

*2022- yil yanvar-dekabr*

## Yillar bo‘yicha taqsimlanishi, *ming birlik*




2022- yil yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan nikohlar soni **48,7** ming birlikni tashkil etib, so‘nggi 5 yilda sezilarli ko‘payganligi, ya’ni 2018- yilga nisbatan **16,4** mingtaga yoki **50,8** foizga kamayganligi kuzatildi.

## Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi



**Shahar** **30,2** *ming birlik*

**Qishloq** **18,5** *ming birlik*

2022- yil yanvar-dekabr oylarida nikohdan ajralishlarning soni **48,7** ming tani tashkil etdi, shundan shahar joylarida **30,2** ming tani, qishloq joylarida **18,5** ming tani tashkil etdi.

## Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, *birlik/ulushi*

| | Shahar | | Qishloq | |
|---|---|---|---|---|
| Yanvar | 61,2% | 2 479 | 38,8% | 1 573 |
| Fevral | 59,9% | 2 388 | 40,1% | 1 597 |
| Mart | 64,3% | 2 650 | 35,7% | 1 474 |
| Aprel | 60,7% | 2 485 | 39,3% | 1 610 |
| May | 61,5% | 2 674 | 38,5% | 1 672 |
| Iyun | 63,6% | 2 520 | 36,4% | 1 443 |
| Iyul | 62,0% | 2 446 | 38,0% | 1 496 |
| Avgust | 61,4% | 2 527 | 38,6% | 1 591 |
| Sentabr | 61,5% | 2 360 | 38,5% | 1 478 |
| Oktabr | 63,0% | 2 445 | 37,0% | 1 437 |
| Noyabr | 62,3% | 2 738 | 37,7% | 1 659 |
| Dekabr | 62,5% | 2 494 | 37,5% | 1 498 |

***Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)*** *– er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarining to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh sud hal qiluv qarorlari asosida yoki FHDYo ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.*

## Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi

*2022- yil yanvar-dekabr*




Nikohdan ajrashganlarning o‘rtacha yoshi 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida erkaklar uchun **39,2** yoshni, ayollar uchun **33,1** yoshni tashkil etgan. Nikohdan ajrashganlarning eng katta ulushi **35** yoshgacha bo‘lgan ajrimlarga to‘g‘ri kelgan, ya’ni jami nikohdan ajrashganlarning **50,5** % ini tashkil etgan.

## Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

*2022-yil yanvar-dekabr*




**Farzandsiz ajrashganlar**

**1 nafar farzand bilan ajrashganlar**

**2 va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar**

## Oylar bo‘yicha qayd etilgan nikohdan ajralishlar soni

*birlik*



# O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar

*2022- yil yanvar-dekabr*

## Yillar bo‘yicha taqsimlanishi, *ming kishi*




## Jinslar kesimida taqsimlanishi



**Erkaklar** **85,6** *ming kishi*

**Ayollar** **129,2** *ming kishi*

## Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi



**Shahar** **164,3** *ming kishi*

**Qishloq** **50,5** *ming kishi*

2022- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘chib kelganlar soni **214,8** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **85,6** ming kishini, ayollar soni **129,2** ming kishi, ko‘chib kelganlar soni shahar joylarida **164,3** ming kishini, qishloq joylarida **50,5** ming kishini tashkil etdi.

## Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, *kishi/ulushi*

| Oy | Erkaklar | Erkaklar ulushi | Ayollar | Ayollar ulushi |
|---|---|---|---|---|
| Yanvar | 7 569 | 39,9% | 11 395 | 60,1% |
| Fevral | 7 212 | 39,8% | 10 920 | 60,2% |
| Mart | 6 339 | 40,3% | 9 390 | 59,7% |
| Aprel | 7 575 | 40,7% | 11 053 | 59,3% |
| May | 7 202 | 41,0% | 10 385 | 59,0% |
| Iyun | 9 130 | 40,9% | 13 167 | 59,1% |
| Iyul | 7 480 | 39,4% | 11 490 | 60,6% |
| Avgust | 7 881 | 38,8% | 12 409 | 61,2% |
| Sentabr | 6 309 | 38,7% | 10 003 | 61,3% |
| Oktabr | 6 381 | 39,4% | 9 826 | 60,6% |
| Noyabr | 6 558 | 39,1% | 10 196 | 60,9% |
| Dekabr | 5 927 | 39,6% | 9 024 | 60,4% |

## O‘zbekiston Respublikasiga xorijdan ko‘chib kelganlar

*2022- yil yanvar-dekabr*

**Yillar bo‘yicha taqsimlanishi,**
*ming kishi*




2022- yil yanvar-dekabr oylarida xorijdan ko‘chib kelganlar soni **2,3** ming nafarni tashkil etib, so‘nggi 5 yilda sezilarli kamayganligi, ya’ni 2018- yilga nisbatan **0,6** mingtaga yoki **20,7 %** ga kamayganligi kuzatildi.

**Jinslar kesimida taqsimlanishi**

**Erkaklar**
**1,1**
*ming kishi*

**Ayollar**
**1,2**
*ming kishi*

2022- yil yanvar-dekabr oylarida Xorijdan ko‘chib kelganlar soni **2,3** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar **1,1** ming kishini, ayollar **1,2** ming kishini tashkil etdi.

**Oylar bo‘yicha taqsimlanishi,**
*kishi/ulushi*

| | Erkaklar | | Ayollar | |
|---|---|---|---|---|
| Yanvar | 45 | 41,3% | 64 | 58,7% |
| Fevral | 52 | 41,9% | 72 | 58,1% |
| Mart | 73 | 48,0% | 79 | 52,0% |
| Aprel | 63 | 43,4% | 82 | 56,6% |
| May | 68 | 45,6% | 81 | 54,4% |
| Iyun | 97 | 52,4% | 88 | 47,6% |
| Iyul | 83 | 49,1% | 86 | 50,9% |
| Avgust | 102 | 44,9% | 125 | 55,1% |
| Sentabr | 123 | 53,7% | 106 | 46,3% |
| Oktabr | 194 | 57,4% | 144 | 42,6% |
| Noyabr | 139 | 50,2% | 138 | 49,8% |
| Dekabr | 116 | 53,2% | 102 | 46,8% |

***Ko‘chib kelganlar soni*** *– hisobot davrida ma’lum hududga boshqa hududlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar soni.*

**Oylar bo‘yicha xorijdan ko‘chib kelganlar**

*kishi*




**Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi**

*2022- yil yanvar-dekabr*




O‘zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi (jami xorijdan ko‘chib kelganlarga nisbatan **35,0** %), Qozog‘iston Respublikasi (**32,8** %), Tojikiston Respublikasi (**6,7** %), Qirg‘iz Respublikasi (**4,8** %), Turkmaniston Respublikasi (**1,6** %) va boshqa mamlakatlar (**19,1** %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

## O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar

*2022-yil yanvar-dekabr*

### Yillar bo‘yicha taqsimlanishi, *ming kishi*




### Jinslar kesimida taqsimlanishi



**Erkaklar**
**88,5**
*ming kishi*

**Ayollar**
**132,8**
*ming kishi*

### Shahar va qishloq joylar bo‘yicha taqsimlanishi



**Shahar**
**145,8**
*ming kishi*

**Qishloq**
**75,5**
*ming kishi*

2022- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘chib ketganlar soni **221,3** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar soni **88,5** ming kishini, ayollar soni **132,8** ming kishi, ko‘chib ketganlar soni shahar joylarida **145,8** ming kishini, qishloq joylarida **75,5** ming kishini tashkil etdi.

### Oylar bo‘yicha taqsimlanishi, *kishi/ulushi*

| Oy | Erkaklar, % | Erkaklar | Ayollar, % | Ayollar |
|---|---|---|---|---|
| Yanvar | 40,0% | 7 637 | 60,0% | 11 467 |
| Fevral | 40,2% | 7 455 | 59,8% | 11 069 |
| Mart | 40,5% | 6 459 | 59,5% | 9 490 |
| Aprel | 40,7% | 7 557 | 59,3% | 11 023 |
| May | 40,9% | 7 164 | 59,1% | 10 340 |
| Iyun | 40,9% | 9 081 | 59,1% | 13 135 |
| Iyul | 39,4% | 7 454 | 60,6% | 11 484 |
| Avgust | 38,8% | 7 830 | 61,2% | 12 375 |
| Sentabr | 39,0% | 6 851 | 61,0% | 10 700 |
| Oktabr | 40,2% | 7 754 | 59,8% | 11 537 |
| Noyabr | 39,4% | 7 018 | 60,6% | 10 779 |
| Dekabr | 39,8% | 6 221 | 60,2% | 9 408 |

## O‘zbekiston Respublikasidan xorijga ko‘chib ketganlar

*2022- yil yanvar-dekabr*

**Yillar bo‘yicha taqsimlanishi,** *ming kishi*




2022- yil yanvar-dekabr oylarida xorijga ko‘chib ketganlar soni **8,8** ming nafarni tashkil etib, so‘nggi 5 yilda sezilarli kamayganligi, ya’ni 2018- yilga nisbatan **8,8** mingtaga yoki **50,0 %** ga kamayganligi kuzatildi.

**Jinslar kesimida taqsimlanishi**

| Erkaklar | Ayollar |
|---|---|
| 4,1 | 4,7 |
| *ming kishi* | *ming kishi* |

2022- yil yanvar-dekabr oylarida Xorijga ko‘chib ketganlar soni **8,8** ming kishini tashkil etdi, shundan erkaklar **4,1** ming kishini, ayollar **4,7** ming kishini tashkil etdi.

**Oylar bo‘yicha taqsimlanishi,** *kishi/ulushi*

| Oy | Erkaklar | | Ayollar | |
|---|---|---|---|---|
| Yanvar | 113 | 45,4% | 136 | 54,6% |
| Fevral | 295 | 57,2% | 221 | 42,8% |
| Mart | 193 | 51,9% | 179 | 48,1% |
| Aprel | 45 | 46,4% | 52 | 53,6% |
| May | 30 | 45,5% | 36 | 54,5% |
| Iyun | 48 | 46,2% | 56 | 53,8% |
| Iyul | 58 | 42,0% | 80 | 58,0% |
| Avgust | 51 | 35,9% | 91 | 64,1% |
| Sentabr | 665 | 45,3% | 803 | 54,7% |
| Oktabr | 1 567 | 45,8% | 1 855 | 54,2% |
| Noyabr | 599 | 45,4% | 721 | 54,6% |
| Dekabr | 410 | 45,8% | 486 | 54,2% |

***Ko‘chib ketganlar soni** – hisobot davrida ma’lum hududdan boshqa hududga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni.*

**Oylar bo‘yicha xorijga ko‘chib ketganlar**

*kishi*




**Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi**

*2022- yil yanvar-dekabr*




O‘zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasi (jami **79,5** %), Rossiya Federatsiyasi (**16,4** %), Qirg‘iz Respublikasi (**0,7** %), Tojikiston Respublikasi (**0,5** %), Turkmaniston Respublikasi (**0,3** %) va boshqa mamlakatlar (**2,6** %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

# AHOLI MIGRATSIYASI

*(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)*

2022- yil yanvar-dekabr oylarida respublika bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni **214 821** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlaridan ko‘chib kelganlar **212 499** kishini, xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlar **2 322** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami **221 288** kishini, shu jumladan respublikaning boshqa hududlariga ko‘chib ketganlar **212 498** kishini, xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlar **8 790** kishini tashkil etib, migratsiya saldosi minus **- 6 467** kishini tashkil etdi.

## O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni

*2022- yil yanvar-dekabr, kishi*

| | Ko‘chib kelganlar | | | Ko‘chib ketganlar | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Jami | shundan: respublika-ning boshqa hududlari-dan | shundan: xorijiy mamla-katlardan | Jami | shundan: respublika-ning boshqa hududlariga | shundan: xorijiy mamla-katlarga |
| **O‘zbekiston Respublikasi** | **214 821** | **212 499** | **2 322** | **221 288** | **212 498** | **8 790** |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 7 754 | 7 596 | 158 | 13 167 | 8 478 | 4 689 |
| viloyatlar: | | | | | | |
| Andijon | 6 585 | 6 583 | 2 | 8 395 | 8 324 | 71 |
| Buxoro | 6 236 | 6 218 | 18 | 9 273 | 9 191 | 82 |
| Jizzax | 6 631 | 6 606 | 25 | 8 417 | 8 298 | 119 |
| Qashqadaryo | 9 138 | 9 124 | 14 | 16 235 | 16 178 | 57 |
| Navoiy | 8 721 | 8 665 | 56 | 9 209 | 8 879 | 330 |
| Namangan | 2 506 | 2 483 | 23 | 4 808 | 4 665 | 143 |
| Samarqand | 9 071 | 9 053 | 18 | 14 276 | 14 033 | 243 |
| Surxondaryo | 9 577 | 9 535 | 42 | 13 767 | 13 661 | 106 |
| Sirdaryo | 6 885 | 6 864 | 21 | 7 833 | 7 711 | 122 |
| Toshkent | 27 350 | 26 841 | 509 | 33 119 | 31 547 | 1 572 |
| Farg‘ona | 8 618 | 8 557 | 61 | 11 422 | 11 243 | 179 |
| Xorazm | 6 685 | 6 672 | 13 | 8 148 | 8 020 | 128 |
| Toshkent sh. | 99 064 | 97 702 | 1 362 | 63 219 | 62 270 | 949 |

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha doimiy aholi soni

*2023- yil 1- yanvar holatiga*

**Hududlar bo‘yicha doimiy aholi soni,** *ming kishi*




Hududlar bo‘yicha doimiy aholisi soni eng ko‘p Samarqand viloyatida **4 118,4** ming kishi, Farg‘ona viloyatida **3 976,5** ming kishi, Qashqadaryo viloyatida **3 482,6** ming kishi, eng kam aholi soni Sirdaryo viloyatida **896,6** ming kishi, Navoiy viloyatida **1 055,5** ming kishi va Jizzax viloyatida **1 455,6** ming kishini tashkil etgan.

**Doimiy aholisi soni eng ko‘p bo‘lgan shahar/tumanlar**

| | |
|---|---|
| Namangan sh. | 678,2 |
| Samarqand sh. | 573,2 |
| Urgut | 545,7 |
| Andijon sh. | 468,1 |
| Denov | 409,5 |

Doimiy aholisi soni eng ko‘p Namangan shahrida **678,2** ming kishi, Samarqand shahrida **573,2** ming kishi, Urgut tumanida **545,7** ming kishi, Andijon shahrida **468,1** ming kishi va Denov tumanida esa **409,5** ming kishini tashkil etgan.

**Doimiy aholisi soni eng kam bo‘lgan shahar/tumanlar**

| | |
|---|---|
| G‘ozg‘on sh. | 9,1 |
| Tomdi | 15,8 |
| Shirin sh. | 19,3 |
| Qorovulbozor | 19,5 |
| Bo‘zatov | 21,9 |

Doimiy aholisi soni eng kam G’ozg‘on shahrida **9,1** ming kishi, Tomdi tumanida **15,8** ming kishi, Shirin shahrida **19,3** ming kishi, Qorovulbozor tumanida **19,5** ming kishi va Bo‘zatov tumanida esa **21,9** ming kishini tashkil etgan.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan tug‘ilishlar

*2022- yil yanvar-dekabr*

**Hududlar bo‘yicha tug‘ilish koeffitsiyenti, ‰**




Hududlar bo‘yicha tug‘ilish koeffitsiyenti eng yuqori Surxondaryo viloyatida **29,4** promille, Qashqadaryo viloyatida **28,5** promille, Jizzax viloyatida **27,9** promille, eng kam ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasida **21,8** promille, Buxoro viloyatida **22,6** promille va Xorazm viloyatida **23,1** promilleni tashkil etgan.

**Tug‘ilish koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan shahar/tumanlar**

| | |
|---|---|
| Chiroqchi | 40,5 ‰ |
| Namangan sh. | 39,4 ‰ |
| Sergeli | 34,9 ‰ |
| Navoiy sh. | 32,4 ‰ |
| Yangiyer sh. | 32,2 ‰ |

Tug‘ilish koeffitsiyenti eng yuqori Chiroqchi tumanida **40,5** promille, Namangan shahrida **39,4** promille, Sergeli tumanida **34,9** promille, Navoiy shahrida **32,4** promille va Yangiyer shahrida **32,2** promilleni tashkil etgan.

**Tug‘ilish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan shahar/tumanlar**

| | |
|---|---|
| Ohangaron sh. | 10,9 ‰ |
| Bo‘zatov | 16,1 ‰ |
| Tomdi | 16,4 ‰ |
| Boyovut | 16,4 ‰ |
| Buxoro | 17,1 ‰ |

Tug‘ilish koeffitsiyenti eng kam tuman, shaharlardan Ohangaron shahrida **10,9** promille, Bo‘zatov tumanida **16,1** promille, Tomdi va Boyovut tumanlarida **16,4** promille hamda Buxoro tumanida **17,1** promilleni tashkil etgan.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha vafot etganlar

*2022- yil yanvar-dekabr*

**Hududlar bo‘yicha o‘lim koeffitsiyenti, ‰**




Hududlar bo‘yicha vafot etish koeffitsienti eng yuqori Toshkent shahrida **5,7** promille, Surxondaryo viloyatida **5,0** promille, Toshkent viloyatida **5,0** promille, eng kam ko‘rsatkich Navoiy viloyatida **4,0** promille, Namangan viloyatida **4,5** promille va Buxoro viloyatida **4,5** promilleni tashkil etgan.

**O‘lim koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan shahar/tumanlar**

| | |
|---|---|
| Mirzo Ulug‘bek | 8,0 ‰ |
| Urganch sh. | 7,9 ‰ |
| Chilonzor | 7,9 ‰ |
| Andijon sh. | 6,9 ‰ |
| Yashnobod | 6,9 ‰ |

O‘lim koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan Mirzo Ulug‘bek tumanida **8,0** promille, Urganch shahri va Chilonzor tumanida **7,9** promille, Andijon shahri va Yashnobod tumanida **6,9** promilleni tashkil etgan.

**O‘lim koeffitsiyenti eng past bo‘lgan shahar/tumanlar**

| | |
|---|---|
| G‘ozg‘on sh. | 1,8 ‰ |
| Ohangaron sh. | 2,1 ‰ |
| Ko‘kdala | 2,2 ‰ |
| Zarafshon sh. | 2,7 ‰ |
| Yangihayot | 3,0 ‰ |

O‘lim koeffitsiyenti eng kam bo‘lgan G‘ozg‘on shahri **1,8** promille, Ohangaron shahri **2,1** promille, Ko‘kdala tumani **2,2** promille, Zarafshon shahri **2,7** promille va Yangihayot tumani **3,0** promilleni tashkil etgan.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha qayd etilgan nikohlar

*2022- yil yanvar-dekabr*

**Hududlar bo‘yicha nikoh koeffitsiyenti, ‰**




Hududlar bo‘yicha nikoh koeffitsienti eng yuqori Surxondaryo viloyatida **9,6** promille, Qashqadaryo viloyatida **9,4** promille, Jizzax viloyatida **8,7** promille, eng past ko‘rsatkich Qoraqalpog‘iston Respublikasida **7,6** promille, Toshkent shahrida **7,7** promille va Toshkent viloyatida **7,8** promilleni tashkil etgan.

**Nikoh koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan shahar/tumanlar**

| | |
|---|---|
| Namangan sh. | 13,9 ‰ |
| Yakkasaroy | 12,5 ‰ |
| Chiroqchi | 11,3 ‰ |
| Jarqo‘rg‘on | 11,0 ‰ |
| Qumqo‘rg‘on | 10,3 ‰ |

Nikoh koeffitsiyenti bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Namangan shahrida **13,9** promille, Yakkasaroy tumanida **12,5** promille, Chiroqchi tumanida **11,3** promille va Jarqo‘rg‘on tumanida **11,0** promille kuzatildi.

**Nikoh koeffitsiyenti eng past bo‘lgan shahar/tumanlar**

| | |
|---|---|
| Yangi Namangan | 3,0 ‰ |
| Mirzaobod | 3,3 ‰ |
| Tomdi | 3,6 ‰ |
| Ohangaron sh. | 3,6 ‰ |
| Boyovut | 5,5 ‰ |

Nikoh koeffitsiyenti bo‘yicha eng past ko‘rsatkich Yangi Namangan tumani (**3,0** ‰), Mirzaobod tumani (**3,3** ‰), Tomdi tumani (**3,6** ‰), Ohangaron shahri (**3,6** ‰) va Guliston tumanida (**4,0** ‰) kuzatildi.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha nikohdan ajralishlar

*2022- yil yanvar-dekabr*

### Hududlar bo‘yicha nikohdan ajralish koeffitsiyenti, ‰




Hududlar bo‘yicha nikohdan ajralish koeffitsienti eng yuqori Toshkent shahrida **2,0** promille, Sirdaryo viloyatida **2,0** promille, Toshkent viloyatida **1,7** promille, eng kam ko‘rsatkich Qashqadaryo viloyatida **1,0** promille, Surxondaryo viloyatida **1,0** promille va Qoraqalpog‘iston Respublikasida **1,1** promilleni tashkil etgan.

### Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan shahar/tumanlar

- Sergeli — 3,2 ‰
- Namangan sh. — 3,2 ‰
- Yangiyer sh. — 3,0 ‰
- Olmaliq sh. — 2,7 ‰
- Bektemir — 2,7 ‰

Nikohdan ajralish koeffitsiyenti bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Sergeli tumani va Namangan shahrida **3,2** promille, Yangiyer shahrida **3,0** promille hamda Olmaliq shahri va Bektemir tumanida **2,7** promilleni tashkil etgan.

### Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan shahar/tumanlar

- Yangi Namangan — 0,3 ‰
- G‘ozg‘on sh. — 0,3 ‰
- Ko‘kdala — 0,4 ‰
- Dehqonobod — 0,5 ‰
- Bandixon — 0,6 ‰

Nikohdan ajralish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan Yangi Namangan tumani **0,3** promille, G‘ozg‘on shahri **0,3** promille, Ko‘kdala tumani **0,4** promille, Dehqonobod tumani **0,5** promille va Bandixon tumani **0,6** promilleni tashkil etgan.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha jami ko‘chib kelganlar

*2022- yil yanvar-dekabr*

### Hududlar bo‘yicha ko‘chib kelish koeffitsiyenti, ‰




Hududlar bo‘yicha ko‘chib kelish koeffitsienti eng yuqori Toshkent shahrida **34,1** promille, Toshkent viloyatida **9,2** promille, Navoiy viloyatida **8,3** promille, eng kam ko‘rsatkich Namangan viloyatida **0,8** promille, Andijon viloyatida **2,0** promille va Farg‘ona viloyatida **2,2** promilleni tashkil etgan.

### Ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan shahar/tumanlar

- Sergeli — 106,4 ‰
- Bektemir — 81,3 ‰
- Yangihayot — 64,7 ‰
- Yashnobod — 43,1 ‰
- Mirzo Ulug‘bek — 35,2 ‰

Ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng yuqori Sergeli tumani **106,4** promille, Brktemir tumani **81,3** promille, Yangihayot tumani **64,7** promille, Yashnobod tumani **43,1** promille va Mirzo Ulug‘bek tumani **35,2** promilleni tashkil etgan.

### Ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan *shahar/tumanlar*

- Chortoq — 0,1 ‰
- Paxtachi — 0,1 ‰
- Izboskan — 0,2 ‰
- Urgut — 0,2 ‰
- Marg‘ilon sh. — 0,2 ‰

Ko‘chib kelish koeffitsiyenti eng kam bo‘lgan Chortoq tumani **0,1** promille, Paxtachi tumani **0,1** promille, Izboskan tumani **0,2** promille, Urgut tumani **0,2** promille va Marg‘ilon shahri **0,2** promilleni tashkil etgan.

## O‘zbekiston Respublikasi hududlari bo‘yicha jami ko‘chib ketganlar

*2022- yil yanvar-dekabr*

### Hududlar bo‘yicha ko‘chib ketish koeffitsiyenti, ‰




Hududlar bo‘yicha ko‘chib ketish koeffitsienti eng yuqori Toshkent shahrida **21,7** promille, Toshkent viloyatida **11,2** promille, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida **8,8** promille, eng kam ko‘rsatkich Namangan viloyatida **1,6** promille, Andijon viloyatida **2,6** promille va Farg‘ona viloyatida **2,9** promilleni tashkil etgan.

### Ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng yuqori bo‘lgan shahar/tumanlar

| | |
|---|---|
| Taxtako‘pir | 54,9 ‰ |
| Zangiota | 39,2 ‰ |
| Sergeli | 33,4 ‰ |
| Qibray | 32,2 ‰ |
| Chilonzor | 28,9 ‰ |

Ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng yuqori Taxtako‘pir tumani **54,9** promille, Zangiota tumani **39,2** promille, Sergeli tumani **33,4** promille, Qibray tumani **32,2** promille va Chilonzor tumani **28,9** promilleni tashkil etgan.

### Ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng past bo‘lgan *shahar/tumanlar*

| | |
|---|---|
| Ko‘kdala | 0,3 ‰ |
| Yangi Namangan | 0,5 ‰ |
| So‘x | 0,5 ‰ |
| To‘raqo‘rg‘on | 1,0 ‰ |
| Yangiqo‘rg‘on | 1,1 ‰ |

Ko‘chib ketish koeffitsiyenti eng past Ko‘kdala tumani **0,3** promille, Yangi Namangan tumani **0,5** promille, So‘x tumani **0,5** promille, To‘raqo‘rg‘on tumani **1,0** promille va Yangiqo‘rg‘on tumani **1,1** promilleni tashkil etgan.

**Doimiy aholi** – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylar (ovullar, qishloqlar va boshqalar)da istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘shilib, o‘lganlar va muayan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug‘ilish** – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**O‘lim sabablari** – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko‘chib kelganlar soni** – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi**
*Tel: 71 2038000 (ichki 1240)*

PRESS-RELIZ